







Nogironligi bor insonlarning ijtimoiy kartalari va nogironligi bor yoshlar uchun imkoniyatlar

Illyustratsiya	Oson matn
	Bu maqolada sen • nogironligi bor insonlar uchun **ijtimoiy kartalar** • nogironligi bor **yoshlar uchun imkoniyatlar** haqida bilib olasan.
	Prezident qaroriga ko‘ra 2025-yildan **ijtimoiy karta** axborot tizimi tashkil qilinadi.
	**Ijtimoiy karta** – bu sen ijtimoiy xizmatlar va to‘lovlar qilish uchun ishlatadigan plastik karta.
	Ijtimoiy kartani **Ijtimoiy himoya milliy agentligi** beradi.

	**Sen ijtimoiy karta orqali:** ● yangi tayinlanadigan ijtimoiy to‘lovlar, xizmatlar va imtiyozlarga pul o‘tkazishing mumkin.
	Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko‘ra protez-ortopedik buyumlar va davolash vositalarini ham **ijtimoiy karta** orqali sotib olish mumkin.
	Masalan: ● Hozir sen nogironlik pensiyasi, protez uchun to‘lovlar va boshqa to‘lovlarni bank plastik kartasi orqali olasan. ● 2025-yildan boshlab bu to‘lovlar ijtimoiy karta orqali beriladi.
	2025-yil 1-apreldan boshlab: ● Nogironlik haqidagi hujjat ● Talabalik haqidagi hujjat ● O‘quvchilik haqidagi hujjat ● Urush qatnashchisi yoki shu kabi inson hujjatlarning qog‘oz ko‘rinishi bekor qilinib o‘rniga **ijtimoiy karta** beriladi.

	Masalan: ● Senda ikkinchi guruh nogironligi bor. ● Sen hozirgi tizimda o‘z imtiyozlaringdan foydalanish uchun davlat tashkilotiga murojaat qilsang **nogironlik hujjatingni** ko‘rsatishing kerak. ● Yangi tizimda esa sening nogironliging ijtimoiy karta orqali tasdiqlanadi.
	2025-yil 1-apreldan boshlab ● **jamoat transporti** ● **temir yo‘l** ● **samolyotlar** ● **yo‘nalishli taksi** xizmatlariga imtiyozlar nogironligi bor insonlarning ijtimoiy kartasi orqali beriladi.
	Masalan: ● Senga metro yoki boshqa transportdan imtiyozli foydalanish uchun ijtimoiy karta beriladi.

	• Keyin sen Ijtimoiy kartani kassir, kuzatuvchi yoki haydovchiga ko‘rsatib, transportdan bepul foydalanishing mumkin.
	2025-yil 1-oktyabrdan boshlab: • yoshga doir pensiyalar • nogironlik pensiyasi • boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalari ijtimoiy karta orqali beriladi.
	Sen 2025-yil oktyabr oyidan boshlab o‘z xohishingga ko‘ra, nafaqalarni ijtimoiy karta orqali olishing mumkin bo‘ladi.
	**“Imkon ta’lim” granti** – bu nogironligi bor yoshlarni kompyuter kurslariga grant asosida bepul o‘qitish.
	Sen **“Imkon ta’lim”** grantidan foydalanib kompyuter kursida o‘qimoqchi bo‘lsang, o‘zing yashaydigan mahalladagi **mahalla raisi** yoki y**oshlar yetakchisiga** murojaat qilishing mumkin.

	• “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” ro‘yxatidagi insonlarga • birinchi va ikkinchi guruh nogironligi bor insonlarga **chet tilini bilish darajasini aniqlash imtihonlarining 50 foiz** to‘lovi to‘lab beriladi.
	Masalan: • Senda nogironlik bo‘lsa chet tili sertifikati uchun imtihon to‘lovining yarimini to‘laysan.
	Sen universitetga kirish imtihonini bepul topshirasan.